

## YE-LEARNING MUHITIDA TALABA YOSHLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.

Safarova Nafisa Kayimovna

Buxoro davlat universiteti, pedagogika va psixologiya fakultet magistranti

*Ye-learning tizimi* – yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida bilim berish va ta'lim jarayonini boshqarish. Elektron ta'lim jarayonida axborot yetkazishning interaktiv elektron vositalaridan, ko'pincha Internet va kompaniyalarning korporativ tarmoqlaridan foydalaniladi, biroq boshqa usullar, masalan, kompakt-disklar ham istisno qilinmaydi. Elektron ta'lim tizimi dasturiy va apparat yECHIMLARIdan tashkil topadi. U o'quv kontenti va ta'limni monitoring qilish tizimini o'z ichiga olgan maxsus ma'lumotlar bazasi mavjud bo'lishini taqozo etadi

Har bir inson dastlabki tarbiyani, ya'ni ma'naviy ozuqani oilada ota-onadan oladi. Keyin esa maktabga boradi. Jamoada o'zini qanday tutishni o'rganadi. Ma'naviy ozuqa olishning, chin inson bo'lib yetishishning birdan bir yo'li bu kitob mutolaasi hisoblanadi. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog'liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Darhaqiqat, bu ma'naviy sarchashma farzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o'stirib, xotirasini mustahkamlaydi.

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamrox, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi. Bola tarbiyasida uning o'rni muhim. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Shu bois yurtimizda aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishida belgilab berilgan vazifalar o'zining dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta'lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotini o'tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot qilishga qaratilgan ta'sirchan faoliyat olib borish orqali aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha tegishli vazifalar va yo'nalishlar belgilab berildi.

Jumladan, Toshkent shahar «Bilim» axborot-kutubxona markazining foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi mutaxassislari tomonidan "Ko'chma kutubxona", "Mobil kutubxona", "Kitob chemadonchasining sayoxati" kabi loyixalari doirasida "Bir soatdan oilaviy kitob o'qish", "Men kitob o'qishni sevaman", "Men farzandimga kitob sovg'a qilaman", "Biz oilaviy o'qiyamiz" kabi aksiyalar tashkil etilgan. Ushbu aksiyalarni o'tkazish doirasida oilada sog'lom ma'naviy muhit yaratish, har bir oilada ma'naviy ong, har tomonlama yetuk kamolga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash bilan birga imkoniyati cheklangan insonlarni uylariga borib, ular bilan suxbatlashib, yangi kelgan adabiyotlar bilan tanishtiri jarayonida qiziqishlarini inobatga olgan holda o'qish uchun kitoblar tavsiya etiladi.

Ma'lumki, o'quvchilar qalbida yuksak ma'naviyatni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyosdir. Kitob asrlarni-asrlarga, zamonlarni-zamonlarga, rishtalarni-rishtalarga ulovchi vosita. Shuning uchun har bir inson, har bir kitobxonda kitob o'qish, axborot olish madaniyatini yanada rivojlantirishimiz kerak. Kitob o'qish madaniyati juda keng tushuncha va murakkab muammo bo'lib, taxminan quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi:

*Ø kitob tanlab olish;*

*Ø kitobni qanday o'qishni bilish;*

*Ø kitob o'qiganda nimalarga e'tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish;*

*Ø kerakli ma'lumotlarni qayerdan, qanday, qaysi vositalardan foydalanib topish;*

*Ø olingan bilimni yoki xabarni qanday yetkazib berish;*

*Ø qayta o'qish-kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish;*

*Ø kutubxonada katalog va kartotekalar bilan ishlay bilish;*

*Ø kitobni tez va sekin o'qishni farqlay olish;*

*Ø kitobni o'qib, uning fusunkor olamiga kira bilish;*

*Ø kitobni mustaqil o'qiy bilish.*

Demak, biz soha mutaxassislari oldiga ham yuksak mas'uliyat yuklaydi. Shuning uchun kitobxonlar bilan doimiy ravishda savol javoblar, ko'rgazma oldida suxbat va eng asosiysi OAV bilan hamkorlikda turli tadbirlar tashkil etish orqali targ'ibot ishlarini yanada ta'sirchanligini oshirishimiz kerak.

Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo'lgan talabni o'rganish, shu jumladan, badiiy, ma'rifiy, yoshlarning dunyoqarashini

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

kengaytirishga doir adabiyotlarning umumiy buyurtma ro'yxatini shakllantirish tizimini takomillashtirish ayni kunning dolzarb vazifasi hisoblanib, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni yuksaltirishda eng tasirchan omillardandir.

Prezidentimizning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ayni vaqtda qabul qilingan zaruriy xujjat bo'ldiki, unda belgilangan vazifalarning bandma-band bajarilishi jamiyatimiz ma'naviy-ma'rifiy hayotida tub burilish yasaydi deyishimizga to'la asos bera oladi. Matbuot va axborot hamda axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi yagona davlat siyosatini yurituvchi vakolatli davlat organini belgilanganligi, butun mamlakat bo'ylab nashr etilayotgan kitoblarning (*elektron shakli bilan birgalikda*) o'z vaqtida kitobxonlarga yetkazib berilishini ta'minlash bilan birga mamlakatimiz aholisi va ayniqsa yoshlarimiz orasida kitob mutolaasi va kitobxonlik darajasining yanada ortishiga mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

Shuningdek, bugun yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yuksaltirish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirish maqsadida 2017 yil 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr yetish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354-son qarorlari, shuningdek, Prezidentimiz tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil yetish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusdan biri - yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish borasidagi ishlarimizda dasturil amal bo'lmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Sohaning rivojlanishiga va yuqoridagi huquqiy me'yoriy xujjatlarda belgilab berilgan vazifalarini ijrosiga qaratilgan axborot-kutubxona markazida maxsus reja ishlab chiqilgan holda faoliyat olib borilmoqda. Aholi, ayniqsa yoshlar dunyoqarashini kengaytirish, intellektual saviyasini o'stirish, ma'naviy olamini boyitishga oid ilmiy-ma'rifiy, badiiy adabiyotlar, jumladan, elektron shaklda o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti hamda jaxon adabiyotining buyuk badiiy namunalarining audio va video variantini yaratish va ijtimoiy tarmoqlarga ya'ni "Bilim"AKMning bilim.natlib.uz saytiga, instagramga, bilim\_akm telegramga va feysbukdagi "Toshkent shahat Bilim axborot-kutubxona markazi" saxifalariga joylashtirish ishlari muntazam amalga oshirilishi kitob o'qishga, mutolaa madaniyatini oshirishda mustahkam zamin yaratmoqda.

Darhaqiqat, Kitob – tafakkur qanoti. Bu qanot mustahkam bo'lsa, yuksak kengliklar sari intilishdan tolmaydi. Kitobga bo'lgan qiziqish o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Har bir inson kitoblar orqali uning ma'naviy xazinasidan, cheksiz imkoniyatidan iloji boricha ko'proq foydalanib, o'zining, o'zgalarning hayotini mazmunan boyitishi mumkin. Kitob-ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do'stlashish nafaqat bizni ma'nan yuksaltiradi, balki jahonga tanitadi, ezgulikka yetaklaydi.

Adabiyotlar

1. Маъмуров, Б. Б., & Хамраев, И. Т. (2020). Субъективные особенности ценностного отношения студенток к специальным тестам «АЛПОМИШ» и «БАРЧИНОЙ». In *Педагогическое образование: вызовы XXI века* (pp. 417-421). <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=ru&cluster=1813447085392371526>
2. Ма'муров, В. В. (2019). Forming Future Teachers' Competence in Educational Process Design based on Acmeological Approach. *Eastern European Scientific Journal*, (1). [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=aXmRXUAAAAJ&art=20&pagesize=80&alert\\_preview\\_top\\_rm=2&citation\\_for\\_view=aXmRXUAAAAJ:UebtZRa9Y70C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aXmRXUAAAAJ&art=20&pagesize=80&alert_preview_top_rm=2&citation_for_view=aXmRXUAAAAJ:UebtZRa9Y70C)
3. Мамуров, Б. (2019). Физическая активность и развитие интеллекта человека. *Педагогическое образование и наука*, (6), 132-134. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=aXmRXUAAAAJ&art=20&pagesize=80&alert\\_preview\\_top\\_rm=2&citation\\_for\\_view=aXmRXUAAAAJ:4T0pqqG69KYC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aXmRXUAAAAJ&art=20&pagesize=80&alert_preview_top_rm=2&citation_for_view=aXmRXUAAAAJ:4T0pqqG69KYC)
4. Mamurov, V. V. (2017). Forming Skills of Academic Process Design for Future Teachers and Methods of Determining Its Quality. *Eastern European Scientific Journal*, (1),

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=aXmRXUAAAAJ&cst=art=20&pagesize=80&alert\\_preview\\_top\\_rm=2&citation\\_for\\_view=aXmRXUAAAAJ:hqOjcs7Dif8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aXmRXUAAAAJ&cst=art=20&pagesize=80&alert_preview_top_rm=2&citation_for_view=aXmRXUAAAAJ:hqOjcs7Dif8C)

5. Маъмуров, Б. Б. АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ПРОЕКТИРОВАНИЮ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА. ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА, 120.

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=aXmRXUAAAAJ&cst=art=20&pagesize=80&alert\\_preview\\_top\\_rm=2&citation\\_for\\_view=aXmRXUAAAAJ:4DMP91E08xMC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aXmRXUAAAAJ&cst=art=20&pagesize=80&alert_preview_top_rm=2&citation_for_view=aXmRXUAAAAJ:4DMP91E08xMC)

6. Мамуров Б.Б. Акемологический подход к воспитанию молодого поколения в наследии предков. [http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped\\_obraz/n2016\\_03.pdf#page=147](http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped_obraz/n2016_03.pdf#page=147)

7. Mamurov Bakhodir B. Forming skills of academic process design for future teachers and methods of determining its quality. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=28408580>

8. Маъмуров Б. Б. Бўлажак ўқитувчиларни шахсга йўналтирилган таълим-тарбия жараёнини лойиҳалашга тайёрлашда қўлланиладиган тамойиллар. Современное образование (Узбекистан), 2017. <https://cyberleninka.ru/article/n/b-lazhak-ityuvchilarni-shahsga-y-naltirilgan-talim-tarbiya-zharayonini-loyi-alashga-tayyorlashda-llaniladigan-tamoyillar>

9. Mamurov B. V. The Need to Prepare Future Teachers to Design a Student-Centered Educational Process. Eastern European Scientific Journal, 2017. <http://journale.auris-verlag.de/index.php/EESJ/article/viewFile/600/596>

10. Мамуров Б.Б., Махмудов М.Х. Акемологическая составляющая образовательной культуры учителя. философские и методологические. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36679921>

11. В Mamurov, A Mamanazarov, K Abdullaev, I Davronov. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students. III International Scientific Congress Society of Ambient ..., 2020. <https://www.atlantis-press.com/proceedings/isc-sai-20/125937241>

12. ББ Мамуров. Акемологический подход к воспитанию молодого поколения в наследии предков. Педагогическое образование и наука, 2016. [http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped\\_obraz/n2016\\_03.pdf#page=147](http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped_obraz/n2016_03.pdf#page=147)

13. N Sheludiakova, B Mamurov, I Maksymova. Communicating the Foreign Policy Strategy: on Instruments and Means of Ministry of Foreign Affairs of Ukraine. [https://www.shs-conferences.org/articles/shsconf/abs/2021/11/shsconf\\_iscsai2021\\_02005/shsconf\\_iscsai2021\\_02005.html](https://www.shs-conferences.org/articles/shsconf/abs/2021/11/shsconf_iscsai2021_02005/shsconf_iscsai2021_02005.html)

14. Тураев М. М., Баймурадов Р. С., Файзиев Я. З. Интерактивные методы физического воспитания в вузах //Педагогическое образование и наука. – 2020. – №. 3. – С. 132-135.

15. Файзиев Я. З., Зиёев Д. Я. У. краткий исторический обзор развития физического воспитания и спорта //Academy. – 2020. – №. 9 (60).

Файзиев Я. З., Кузиева Ф. Эффективности использования национальных средств физического воспитания в учебном процессе //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-1. – С. 95.